

IJTIMOIY BARQARORLIK VA FAROVONLIKNI TA'MINLASH – DAVR TALABI

Djuraeva Dildora

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0005-2344-1305

djurayevadildora77@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi turmush darajasining dolzARB masalalarini tahlil qilish bilan birga, ular oladigan daromadlar dinamikasi va hukumat tomonidan bu borada amalga oshiralayotgan islohotlar atroficha o'rganilgan. Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshiralayotgan chora-tadbirlar va aholining moddiy hamda ma'naviy farovonligini oshirishga qaratilgan dolzARB vazifalarga e'tibor qaratiladi. O'z navbatida kam ta'minlangan aholi qatlamini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish borasida kelgusidagi rivojlanish yo'naliishlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: aholi turmush darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, daromadlar, kambag'allik, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, ijtimoiy siyosat, mahallabay ishlash tizimi.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СТАБИЛЬНОСТИ И БЛАГОПОЛУЧИЯ – ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Джураева Дилдора

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В статье анализируются актуальные вопросы, связанные с уровнем жизни населения, а также динамикой его доходов. Также будет уделено внимание реализуемым мерам в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и актуальным задачам, направленным на повышение материального и духовного благосостояния населения. В свою очередь, будут обсуждаться направления дальнейшего развития с точки зрения разработки механизмов материальной поддержки малообеспеченных слоев населения.

Ключевые слова: уровень жизни населения, социально-экономическое развитие, доходы, бедность, стратегия «Узбекистан - 2030», социальная политика, система труда в махалле.

ENSURING SOCIAL STABILITY AND WELL-BEING IS THE DEMAND OF THE TIMES

Djuraeva Dildora

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. The article analyzes current issues related to the standard of living of the population, as well as the dynamics of its income. Attention will also be paid to the measures being implemented within the framework of the strategy "Uzbekistan - 2030" and current tasks aimed at improving the material and spiritual well-being of the population. In turn, directions for further development will be discussed in terms of developing mechanisms for material support for low-income groups of the population.

Keywords: standard of living of the population, socio-economic development, income, poverty, strategy "Uzbekistan - 2030", social policy, labor system in the mahalla.

Kirish.

Har bir mamlakat aholisining turmush darajasini yaxshilash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Yashash sharoitining yuqori bo'lishi jamiyatning barqaror rivojlanishiga, iqtisodiy o'sishni ta'minlashga, ijtimoiy adolatning tiklanishiga xizmat qilishi shax-shubxasizdir. Shu boisdan, aholini turmush darajasini oshirishga qaratish borasida olib borilayotgan davlat siyosati aholi farovonligini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan hozirjavob iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, aholi daromadlarning muntazam oshirilishi barobarida kambag'allikni qisqartirish yo'nalishida olib borilayotgan ishlar masalaning nechog'li dolzarligini anglatadi. O'z navbatida aholi turmush darajasining to'kin-sochinlik, yetarlilik, me'yoriy daraja, kambag'allik va qashshoqlik borasidagi muammolarni izchillik bilan hal etish - davr talabidir.

Adabiyotlar sharhi.

Shuni ta'kidlash lozimki aholining turmush darajasini tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ko'p bo'lib, ushbu masalalar mamlakatimiz va xorijlik olimlar tomonidan yetarlicha tadqiq qilingan. O'tmishta tegishli bo'lgan ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy ishlab chiqarish va farovonlik, turmush tarzi, uning darajasiga doir nazariy yondashuvlar asosan klassik iqtisod vakillari hisoblangan A.Smit, A.Marshal va shu kabilarning nazariy qarashlariga monand ravishda amalga oshirilgan.

O'z navbatida O'zbekistonda qashshoqliknini kamaytirish va aholining turmush darajasini oshirish muammolari Abduraxmonov (2020), Abduraxmanova, G'oyibnazarova, Qurbanova (2021), Muhammedov, Isxaqova (2016), Qudbiev (2020) va boshqalarning ilmiy ishlarida ham keng o'r ganilgan. Shuningdek, tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida "turmush darjasasi", "turmush sifati", "turmush sharoitlari" va "turmush tarzi" tushunchalari bir biri bilan sinonim tarzda qo'llanilib kelinayotganligi, bu boradagi ilmiy-nazariy tahlillarni yanada kengaytirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ayniqsa, rossiyalik olimlari Bobkov va Bobkovalar (2022) "...turmush darajasini insonlar, ijtimoiy guruuhlar va jamiyat a'zolarining hayotiy faoliyatining rcha jabhalaridagi iste'molini aks ettiradi va hayot kechirishning o'ziga xosligini u yoki bu sifatini nisbiy qiymat ko'rsatkichlarida (Беркинов и др., 2024). ifodalaydi", deb bu boradagi fikrlarni yanada oydinlashtirdi.

Yana bir tadqiqotchi Gorelovning (2003) ta'kidlashicha, turmush darjasasi "...insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining muayyan davrda qondirilganlik darajasini anglatuvchi parametrik ko'rsatkich" deb hisoblaydi. Demak, turmush darjasasi iste'mol qilingan ne'matlar va xizmatlarning miqdor hamda sifat ko'rsatkichlarini aks ettirib, ushbu masalaga mos bo'lgan ko'rsatkichlar tizimi orqali baholanadi.

Shuni inobatga olish kerakki bir qator olimlarning bu boradagi ko'p yillik olib borilgan tadqiqotlarida turmush darjasasi tushunchasini yoritishga qaratilgan o'ziga xos qarashlar keng qamrovli bo'lishi bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlarga ustuvorlik berilganligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ko'p yillik ilmiy izlanishlar shuni qo'rsatadiki, aholi turmush darajasining bir biriga o'xshash va umumiy jihatlarini quyidagicha ko'rib chiqish mumkin, yani:

- ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlar, moddiy farovonlikka olib kelishi mumkin ekanligiga alohida e'tibor qaratish;
- aholining turmush darjasasi muayyan tovarlarga bo'lgan ehtiyojining darjasasi, bir biridan jozibador va xaridbop bo'lgan xizmatlar ko'rsatish va ma'naviy ne'matlarga bo'lgan talabini qondirish bilan tavsiflanadi;
- yalpi aholi yoki uy xo'jaligi a'zolarining daromadi va iste'mol darajasini har tomonlama taqqoslama tahlil qilishga asoslanadi. Shuni ta'kidlash joizki, "turmush darjasasi"

tushunchasining iqtisodiy ma'nosi, ko'p jihatdan "iqtisodiy o'sish" sharti bilan ham uzviy bog'liqdir.

Bu borada ilmiy ish olib borgan xorijlik olimlar R.Adams, M. Ravayon fikriga kura, "...iqtisodiy o'sish insonlarni qashshoqlikdan chiqarish va yaxshi hayot kechirish maqsadlariga erishish (Ranieri, Ramos, 2015)"ning eng samarali usuli hisoblanadi. Mualliflarning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'rtacha daromad darajasining 10% ga ko'tarilishi qashshoqlikn 20-30% ga kamaytirib, aholi jon boshiga o'rtacha daromadning 1% ga foizga oshishi esa qashshoqlikn 1,7 % ga kamaytiradi.

Aholining o'ziga to'q hisoblangan toifasi daromadlarining 1% o'sishi kelgusi 5 yilda yalpi ichki mahsulot ko'tariliish sur'atini 0,08% kamayitirar ekan. Olimlarning fikriga ko'ra "...jamiyatda o'rta sinf va kam t'aminlangan oilalalar daromadlarining 1 % ko'tarilishi YaIM 0,38% ga o'sishiga olib kelishi mumkin". Mualliflarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, turmush darajasi bilan bog'liq masalalarida ko'p qirralilik va murakkablik mavjud bo'lib, ularni o'rganish va hal qilishda turli xil yondashuvlarni qo'llash lozim. Shu bilan birga, aholining turmush darajasini yaxshilash va kambagallikni qisqartirishda mahalliy sharoit va hududlarning o'ziga xos jihatlarini ham hisobga olish zarur.

Turmush darajasini yaxshilashga imkon beradigan milliy iqtisodiyotda aholi bandligini ta'minlashning muayyan darajasini bir meyorda, ayniqsa, inqirozli vaziyatlarda barqaror ushlab turishning iloji yo'q.

O'z-o'zidan aholi hayot davomida duch keladigan turli hil vaziyatlarda yashash tarzini bir maromda saqlab turish, bu holatni o'z vaqtida aniqlash, kerak bo'lsa, muammolarni zudlik bilan bartaraf etgan holda hayotiy ko'niqmalarni tanlash huquqini yaratib berish ayniqsa muhimdir. Shularga asoslab aytish mumkinki, uy ho'jaliklarida daromad topayotgan oila a'zolarining turmush darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar doirasida, O'zbekistonning amaliy makroiqtisodiy o'sish dinamikasini bugungi kunda imkonи aholi turmush darajasini yaxshilashda asosiy vositasi bo'layotgan yo'q, ammo bu turmush darajasini yaxshilashga mahallalarda ibratli ishlar misolida tahlil etmoq maqsadga muvofiqdir.

Bu fikrning yanada oydinroq namoyon bo'lishi uchun O'zbekistondagi jahon tajribasiga tayangan holda amalga oshiralayotgan islohotlar evaziga erishilgan makroiqtisodiy yutuqlarni keltirib o'tish joiz. 2019-2023 yillarda aholi jon boshiga YaIMning hajmi 1,8 baravar oshgan holda 29291,4 ming so'mni tashkil etdi. O'z navbatda sanoat ishlab chiqarish 9604,9 (2019) dan 18011 (2023) ming so'mga oshdi. Ushbu davrda respublikamizda ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari 3285,3 ming so'mdan 5190,8 ming so'mgacha ya'ni 1,6 marotaba, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi esa 2,2 barobar oshdi.

2023 yilda O'zbekistonda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik mahsulotlari (xizmatlari) yetkazib berish hajmi 11706,7 ming so'mni tashkil etmoqda, vaholanki bu raqam 2019 yilga nisbatan 1,8 barobar ko'paydi. Bunga asosan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, shu jumladan, go'sht, sut, tuxum, don, kartoshka, uzum, baliq va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan erishildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda shahar va qishloq joylarida kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu borada amalga oshiralayotgan islohotlar va ko'rilibayotgan chora-tadbirlar ularning salmoqli ishtirokini ta'minlash imkonini bermoqda. 2023 yilda kichik biznesning YaIMdagi ulush 51,2%, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 26,9%, qishloq, o'rmon va baliqchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda 94,8% ni tashkil etayotgani fikrimiz dalilidir (1-jadval).

2024 yil yakuni bo'yicha mamlakatimizda doimiy aholi soni 36799,7 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, ulardan 50,9% shaharlarda, va 49,1% qishloq joylarda yashaydi. Mamlakatimiz shahar va qishloqlarida 9349 ta mahalla mavjud bo'lib, ularda 7257,8 ming xonodon joylashgan.

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy ko'rsatkislarning aholi jon boshiga
nisbatan o'sish dinamikasi (ming so'm)¹**

Ko'rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
Yalpi Ichki Mahsulot	15862,8	17687,5	21149,3	24919,8	29292,4
Ishlab chiqarish (sanoat)	9605,9	10772,8	12936,0	15521,0	18012,0
Ishlab chiqarish (iste'mol tovarlari)	3286,3	3779,6	4355,6	5552,3	5191,8
Qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish	6778	7660	9090	10236	11707,6
Investitsiyalar (asosiy fondga)	5835,6	6141,3	7016,9	7469,6	9668,9
Daromad (jami)	10891,2	12122,3	14869,9	17773,8	20016,9
xizmatlar ulushi	5769,2	6426,2	8145,2	10293,0	12915,7

Bugungi kunda ro'y berayotgan demografik o'zgarishlar va yuzaga kelayotgan shart-sharoitdan kelib chiqqan xolda keksalar, ayollar, yosh avlod vakillarining iqtisodiy muammolarni hal etish borasida dolzarb masalalar o'z vaqtida yechimini topish barobarida mahalla ahlining turmush darajasini muntazam yaxshilab borish muhim hisoblanadi.

Aholi yashash sharoitini tubdan yaxshilash borasida qabul qilingan "O'zbekiston - 2030" strategiyasini alohida ko'rsatib o'tmoq zarur. Shu bilan birga ushbu muhim hujjatni qo'llab-quvvatlovchi huqumatning tegishli qarorlari asosida ko'zlangan natijaga erishish maqsadida zarur vazifalar belgilanib, kerakli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu qarorlarda ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun eng avvalo, milliy iqtisodiyotni tubdan isloh etgan holda aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi sohalarning barqaror rivojlanishini yulga quymoq lozim. O'z navbatida uy ho'jaliklarida ish bilan band bo'lgan aholi qatlami daromadlarini oshirish borasida davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordam muhimdir.

Ayniqsa, kam ta'minlangan oilalarga ko'maklashishdan iborat bo'lgan milliy model yulga qo'yiganligini ta'qidlamoq darkor. Bu boradagi "Mahallabay" ishlash tizimining haraqatga kelgani ayni muddaodir. O'z navbatida mahallarga bir qator huquqlar va imtiyozlar berilib, ularning o'z vaqtida bajarilishni nazorat qilish tartibi o'rnatilgan.

Jumladan, 2022-2024 yillar davomida "Mahallabay" dasturi doirasida aholiga 1,7 mlrd AQSh dollari miqdoridagi kam foizli kreditlar ajratilib, 977,6 ming oilaviy biznes tashabbuslari inobatga olindi.

Ularni moliyalashtirishga imkon berilgani ayni muddao bo'ldi. Aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladigan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun 152 ming oila uchun subsidiyalar shaklida 52 mln.AQSh dollari miqdorida mablag' ajratilgan.

Shuningdek, "Yagona ijtimoiy himoya reestri" axborot tizimi joriy etilib, "ayollar daftari", "yoshlar daftari" va "temir daftar"ga kiritilgan aholini manzilli qo'llab-quvvatlash ta'minlanmoqda. Bu esa aholi turmush darajasini oshirish bilan bir qatorda o'zini o'zi band qilish borasidagi yangi imkoniyatlarni yaratishga xizmat qilishi shubxasizdir.

Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan barcha aholini izchil qamrab olish doirasida kasb-hunarga o'qitish tizimi ham joriy etildi. Buning natijasida aholining kam ta'minlanganlik darajasi 2020 yilda 2017 yilga nisbatan 11,9% dan 11% gacha, shu jumladan, qishloq joylarda 14,8% dan 13,9% gacha kamaydi. 2021-2023 yillarda respublikaning statistik ko'rsatkichlarida qashshoqlik darajasiga baho berila boshlandi va uning darajasini 6,6 % kamaytirishga erishildi.

Aholining daromadlari va ish haqi, ta'lim xususiyatlari va aholining sog'lig'i bilan bir qatorda, turmush va rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlar

¹ <https://stat.uz/uz/nashrlar/3683-o-zbekiston-raqamlarda>

hisoblanadi. Tahlil qilinayotgan davr (2019-2023 yy)da aholi jon boshiga to'g'ri keladigan umumiy daromad 10891,3 ming so'mdan 20015,9 ming so'mga yoki 1,8 baravarga oshgan.

Tahlil qilingan davrda respublikamizda ish haqi barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lish bilan birga uning hajmi ortishi bilan tavsiflanadi. Mamlakatimizda o'rtacha nominal oylik ish haqi 21,2 yilda 2022 yilda 21,2% ga (2021 yilda +20,3%) oshgan, 2018-2022 yillar mobaynida esa 2,1 baravarga ko'paygan. Eng kam ish haqi darajasining oshishi natijasida ish haqining o'sishi kuzatilgan.

Shuni ta'qidlash lozimki, mahallalarda aholini daromadli ish bilan ta'minlash imkoniyati jamiyat turmush darajasi va farovonligi oshishida muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar tufayli 3,5 mln aholining daromadi yaxshilanib, ularni ijtimoiy himoya qilish qamrovi 4,5 marotaba oshirildi. O'z navbatida ijtimoiy nafaqa oladiganlarning umumiy aholidagi ulushi (16 yoshgacha bo'lgan nogironlar uchun nafaqalar, boquvchisini yo'qotganlik) 1% dan (2001 y) 1,7% gacha (2022 y) oshdi.

2023 yilda aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida yo'naltirilgan mablag'lar miqdori 12,3 trln. so'mni tashkil qilganini ta'qidlash darkor. Bundan tashqari, 800 ming ishsizlarga, asosan yoshlarga dehqonchilik uchun qishloq xo'jaligida muhim hisoblangan 260 ming hektar yer ajratildi.

Aholi umumiy daromadining har bir mahallaga to'g'ri keladigan o'rtacha ko'rsatkichlari, jumladan, yalpi daromad, real jami daromadi va real jami daromadi ham muntazam oshib borganligini kuzatish mumkin (2-jadval).

2-jadval

2023 yilda o'rtacha har bir mahallaga to'g'ri keladigan aholi jami daromadlarining turlari va hududlar bo'yicha o'rtacha hajmi²

Hududlar	Aholining yalpi daromadi	Aholining real yalpi daromadlari hajmi	Aholining real real umumiy daromadlari hajmi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	68,4	62,2	58,6
Andijon viloyati	69,1	62,9	59,3
Buxoro viloyati	87,5	79,7	76,0
Jizzax viloyati	86,4	78,5	75,2
Qashqadaryo viloyati	69,7	63,5	60,9
Navoiy viloyati	101,5	92,5	86,9
Namangan viloyati	58,4	53,3	50,6
Samarqand viloyati	62,4	56,8	53,9
Surxondaryo viloyati	62,3	56,8	54,7
Sirdaryo viloyati	64,5	58,6	55,7
Toshkent viloyati	61,4	55,9	52,3
Farg'ona viloyati	59,5	54,3	50,8
Xorazm viloyati	75,5	68,7	66,0
Toshkent shahri	230, 1	206,7	161,8

Respublikamizda uy xo'jaliklari tomonidan iste'mol sarflari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi sezilarli darajada bo'lib, 55% ni tashkil etmoqda. Uy xo'jaliklarining sarflari tarkibida iste'mol sarflari asosiy hisoblanib, deyarli 90% ni tashkil qiladi. 2023 yilga kelib, uning ulushi 5.2% ga ortgan.

Umuman olganda, 2019 yilga nisbatan taqqoslaydigan bo'lsak, 2023 yilda iste'mol sarflari tarkibida o'zgarish xizmatlar ulushida (-3.4%) va nooziq-ovqat tovarlari ulushida (-2.2%) kuzatilgan. Uy xo'jaliklari sarflari tarkibida ham nooziq-ovqat mahsulotlari ulushida pasyish kuzatilgan (-5.4%) (3-jadval)

²<https://stat.uz/uz/nashrlar/3683-o-zbekiston-raqamlarda>

3-jadval

**2019-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha uy xo'jaliklari
xarajatlari tuzilishi, %³**

Ko'rsatkichlar	2019-y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'zgarish,+ -
Uy xo'jaliklari sarflari, jami						
Iste'mol sarflari	84,7	88	91	91,2	89,9	5,3
Oziq-ovqat sarflari	38,9	40,4	51,9	52,3	49,9	12
Xizmatlar sarflari	17,9	17,7	14,7	13,8	14,5	-3,5
Nooziq-ovqat mahsulotlari	29	28,8	22,6	25,3	25,7	-2,3
Iste'mol uchun sarflar						
Oziq-ovqat mahsulotlari	45,7	46,2	57,7	57,2	55,6	9,8
Xizmatlar uchun sarflar	22	20,5	16,4	15	17	-5,1
Nooziq-ovqat tov.	33,3	33,2	26,2	27,8	28,6	-4,8
Noiste'mol sarflari	15,5	13,1	10,2	8,91	10,2	-5,5

Keyingi yillarda O'zbekistonda aholining turmush darajasini yaxshilash, qambag'allikni qisqartirish borasida me'yoriy-huquqiy xujjatlarni ishlab chiqish ko'lami kengayib, qator xujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan vazifalarda⁴ qashshoqlikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirish, davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samarasi sifatida 2025 yilda 1 mln., 2030 yilga borib 1,1 mln aholini qashshoqlidjan chiqarish ko'zda tutilgan (Farmon, 2022).

Xulosa va takliflar.

Aholi daromadlarini oshirish, mehnat bozorini rivojlantirish va ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlash masalalari davlat siyosatida ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Shu maqsadda, iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligini ta'minlash uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi sharoitda kambag'allikni qisqartirish, ish o'rinalarini ko'paytirish va ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali tashkil etish bo'yicha qator takliflar ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. Turmush darajasini oshirish uchun aholi daromadlarini ko'paytirishga yo'naltirilgan yangi iqtisodiy strategiyani ishlab chiqish.
2. Kam ta'minlangan oilalar uchun qo'shimcha ijtimoiy yordam mexanizmlarini joriy etish.
3. Mahalliy biznesni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinalari yaratish maqsadida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish.
4. Bandlik darajasini oshirish uchun kasbiy tayyorgarlik va qayta o'qitish dasturlarini takomillashtirish.
5. "Mahallabay" tizimini takomillashtirib, uning samaradorligini oshirish maqsadida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.
6. Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirib, ehtiyojmand oilalarga moddiy yordamni ko'rsatish muntazam ravishda aniqlash tizimini joriy etish.

³ <https://stat.uz/uz/nashrlar/3683-o-zbekiston-raqamlarda>

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

Adabiyotlar / Литература/Reference:

- Bobkov V.N., Bobkova T.E. I dr. (2022) *Uroven i kachestvo jizni naseleniya Rossii: ot realnosti k proektirovaniyu budushego.* / monografiya / FNISTS RAN. - M.: FNISTS RAN, - 274 s.
- Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni*
- Gorelov N.A. (2003) *Politika doxodov i kachestvo jizni naseleniya.* - SPb. : Piter, - 119-120 s.
- Kudbiev Sh.D. (2020) *Otsenka razvitiya rynka truda i zanyatosti naseleniya.* [Elektron resurs]. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, URL: iqtisodiyot.tsue.uz
- Muxammedov M.M., Isxakova S.A. (2016) *Zanyatostь, doxodы i urovenъ jizni.* / Monografiya. - T.: Iqtisodiet, - 255 s.
- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). O'zbekiston raqamlarda (Statistik to'plam).* <https://stat.uz/uz/nashrlar/3683-o-zbekiston-raqamlarda>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). O'zbekiston – 2030 strategiyasi. Farmon PF-158. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi.* <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi PF-60-son "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni*
- Ranieri R., Ramos R.A. (2015) *After All, what is Indusive Growth?* International Polky Centre for Indusive Growth (IPC-IG). Originally published as IPC-IGs One Pager No. 188.
- Abduraxmanov K.X. (2020) *Ekonomika truda: Teoriya i praktika.* / Uchebnik. - Moskva: FGBOU VO «REU im. G.V. Plexanova». - 664 s.
- Abduraxmanova G.K., Gayibnazarov T.B., Kurbanov S.P. (2021) *Sokrashenie bednosti: vozmojnosti, deystviya i rezul'taty.* / Monografiya. -T.: «Innovatsion rivojlanish nashriet - matbaa iyi», - 164 s.
- Б.Б. Беркинов, Н.И. Неделькина and С.С. Амирджанова (2024). Современные реалии повышения уровня жизни населения в махаллях в условиях развития нового Узбекистана. *Journal of Economics Entrepreneurship and Law, [online]* 14(11), pp.7011–7026. doi:<https://doi.org/10.18334/epp.14.11.122031>.